

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDA TARBIYACHINING O'RNI.

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich
Elmo'minova Oysara Sobir qizi.
Olponova Risolat Omon qizi.
Shomurodova Sevinch To'lqin qizi.*

Annotatsiya.

Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kichik yoshdagi bolalar faoliyatini tashkil etishda tarbiyachi – pedagogning o'rni va ro'li batafsil yoritib berilgan .

Kalit so'zlar: Qobiliyat, tarbiyachi, kreativlik, kommunikativ, tashabbuskorlik.

Kirish. Ilm taraqqiy etishi uchun sarflangan invitsitsiyalar ortig'i bilan qaytishiga shubha yo'q.

SH.M.Mirziyoyev.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshiriladigan ulkan islohatlarning muvaffaqiyatga eng avvalo odamlarning o'z ishlariga ma'suliyat bilan qarashlariga, kundalik mehnat faoliyatida mamalakat taraqqiyotiga hissa bo'lib qo'shiladigan savobli ishlarni qila olishlariga bog'lik. Jamiyatda pedagog (o'qituvchi, tarbiyachi) birinchidan, o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash, ikkinchidan mehnatkash xalqimizga har tomonlama bilim berishdek savobli va ma'suliyatli vazifalarni bajaradi. Maktabgacha pedagogika fani – bu kelajak, istiqbol uchun meros qilib qoldiriladigan boylikdir. Bu boylikning qadr-qimmatini shu qadar buyukki, u odamni ma'naviy jihatdan boy qilib, qalbini baxtga, ilohiy nurga to'ldiradi. Dunyoda biror kimsa yuqki, uning ustozini bo'lmasa. U xukumat rahbarimi, buyuk allomami, shifokormi, xalq mexrini qozongan yozuvchimi yoki qo'li gul kosibmi, qo'yingki, barcha-barchaning o'z ustozini va hayot yo'lini charog'on etib turuvchi yulboshchisi bo'ladi. Ustozning eng buyuk burchi – uning xalqqa nafi tegadigan, aql-idrokli, qobiliyatli, uquvli shogirdlar tayyorlashdir. Tarbiyachi yosh avlodni halkimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim va fahrli shu bilan birga ma'suliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarning tarbiyalash sifati uchun halq va jamiyat oldidagi o'z ma'suliyatini anglashga ta'lim - tarbiya ishlarini hal etishga ijodiy yondoshishga o'z mahoratini doimo faollashtirib borish va hamkasblarning ishdagi o'sishga ko'maklashuviga yordam beradi. Tarbiyachi o'zi yashab turgan o'lka hayotini bilishi tabiat va jamiyat omillarini tushunishi ijtimoiy faol bo'lishi kerak. Respublikamiz rahbariyati pedagoglar faoliyatini yuqori baholamoqda. Ma'lumki

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti (1996-yil 9- yanvardagi) Farmoniga binoan «1 oktyabr Xalq ta’limi hodimlari – o‘qituvchi murabbiylar kuni» deb e’lon qilindi. Bu voqea davlatimizni o‘qituvchilarni jamiyatda tutgan o‘rni naqadar yuksakligidan dalolat beradi. Yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashda [erishgan yutuqlari uchun](#), pedagog ishidagi ijodiy mehnatlari uchun, ilg‘or tajribalarni umumlashtirishda erishgan yutuqlari uchun o‘qituvchi, tarbiyachilar «Metodist o‘qituvchi», «katta o‘qituvchi», «Metodist - tarbiyachi», «Xalq maorifi a’lochisi» va shu kabi sharafli unvonlar bilan taqdirlandilar. Xalk ta’limi xodimlari orasidan respublika buyicha deputatlar saylanishi ham ularga bo‘lgan chuqur hurmat-ehtiromni bildiradi. Jumhuriyatimizda pedagog xodimlarning oylik maoshlari yildan-yilga oshirilib, turmush sharoitlari yaxshilanib kelinmokda. Pedagog xodimlarni malakasini oshirish ilmiy-metodik markazlari kengaytirilmokda, ularning siyosiy tayyorgarligiga talab kuchaytirilmokda, har 4-5 yilda qayta tayyorlashdan o‘tishlari uchun shart-sharoit yaratilmokda. Pedagog-tarbiyachi shaxsiga qo‘yilgan talablar. Uning shaxsini shakllantirish. Pedagog-tarbiyachining nutq madaniyati. Har qanday jamiyatda barkamol avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazish va uni ma’lum bir kasbga yo‘naltirish og‘ir va mashaqqatli mehnat evaziga amalga oshiriladi. Bu mashaqqatli mehnat uzluksiz ta’lim va tarbiyaviy faoliyatning mahsulidir. Mamlakatimizning birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida o‘qituvchining kasbiy faoliyatiga shunday ta’rif beradi: “Barchamizga ayonki, inson qalbiga yo‘l, avvalo ta’lim-tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun qachonki bu haqda gap ketsa, ajdodlarimiz qoldirgan bebaho merosni eslash bilan birga, ota-onalarimiz qatori biz uchun eng yaqin bo‘lgan yana bir buyuk zot – o‘qituvchi va murabbiylarning olijanob mehnatini hurmat bilan tilga olamiz... Muxtasar qilib aytganda, maktab degan ulug‘ dargohning inson va jamiyat taraqqiyotidagi hissasi va ta’sirini, nafaqat yoshlarimiz, balki butun xalqimiz kelajagini hal qiladigan o‘qituvchi va murabbiylar mehnatini hych narsa bilan o‘lchab, qiyoslab bo‘lmaydi”. Mamlakatimizning kelajagi, mustaqil O‘zbekistonning istiqboli, ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan tarbiyachio‘qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligiga, fidoyiligiga, yosh avlodga ta’lim berish va barkamol [inson darajasida tarbiyalab](#), voyaga yetkazishga nisbatan shijoatiga bog‘liq. Ma’lumki, ta’lim muassasalarida tarbiyaviy jarayon bevosita o‘qituvchi tomonidan tashkil qilinadi va olib boriladi. Yangicha ijtimoiy sharoitda ta’limtarbiyadan ko‘zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, o‘quvchilarning dars va darsdan tashqari xilma-xil tarbiyaviy faoliyatlarini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e’tiqodli, vatanparvar, mehnatsevar, barkamol inson qilib o‘stirish va kasbga yo‘naltirish o‘qituvchilar zimmasiga yuklatilgan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachi – pedagog har bir bola bilan aloxida ishlashi ularni jismoniy va psixalagik tomondan o‘rganishi zarur . Tarbiyachi-

peda-gog avvalambor Vatanini , kasbini va albatta bolani sevishi kerak . Bolaning kelajagi uchun qayg'urgan uni kelajakda yetuk inson bo'lib tarbiyalanishi uchun butun kuchini safarbar qilgan tarbiyachigina xaqiyqiy pedagog – tarbiyashi xisoblanadi . Aksincha bolaning kelajagi bilan qiziqmaydiga befarq tarbiyachi haqiqiy pedagog-tarbiyachi hisoblanmaydi .Maktabgacha ta'limda tashkil qilingan turli tadbirlarda bola tashabbus va mustaqillik ko'rsatadi , bola ixtiyoriy harakatlarga qodir. Bolalar tashabbusi bolalarning tanlovi va qiziqishlariga ko'ra erkin mustaqil faoliyatida namoyon bo'ladi . Tashabbus inson faoliyati , xulq-atvori va shaxsiyatining o'ziga xos xususiyati sifatida belgilanadi , bu ichki impulsda harakat qilish qobilyatini anglatadi , reaktivlikdan farqli o'laroq – tashqi stimullar asosida amalga oshiriladigan xatti-xarakatlar . Bolalar bog'chasida o'yin, rasm chizish, dizayn kompoditsiya va boshqalarni o'z manfaatiga moslab qo'yish qobilyati bolaning hisiy holatining eng muxum manbayi hisoblanadi . Bolalar bog'chasida mustaqil tashabbuskorlik faoliyati shaklida bolalar faoliyatining barcha turlari amalga oshirilishi mumkun, chunki xar bir faoliyat mustaqillikning turli tarkibiy qismlarini rivojlantirishga o'ziga hos tasir ko'rsatadi. Tashabbusning har bir soxasi muayyan faoliyat orqali baholanadi ; Ijodiy tashabbus – ishtirok etish hikoya o'yini, bolaning asosiy ijodiy faoliyati sifatida , bu yerda tasavvur va ijodiy fikrlash rivojlanadi. Maqsad belgilash va sifatida tashabbus idora kuchi; xar-hil turdagi ishlab chiqarish faoliyatiga jalb qilish chizish, loyhalash , materialning ‘‘qarshiligini ‘‘ bartaraf etish uchun xarakat talab qiladigan, bu yerda o'z boshimchalik rivojlanadi, nutqning rejalashtirish funksiyasi . Aloqa tashabbusi – empatiya va nutqning kommunikativ funksiyasi ochiladigan bolaning tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlarga kiritish. Kommunitiv tashabbus – qiziquvchanlik, tajribaga jalb qilish oddiy kommunitiv tadqiqot faoliyati , bu yerda fazoviy – vaqt, sabab va nasl-tur munosabatlarini o'rganish qobilyati rivojanadi . Xar-bir faoliyat avtonomiya va tashabbusning turli tarkibiy qismlarining rivojlanishiga o'ziga xos tasir ko'rsatadi . o'yin faoliyat va tashabbusni rivojlanishiga yordam beradi bu bolada individuallik , zukkolik , topqirlik, ijodkorlik va mustaqillikni talab qiladi. Mexnat faoliyati xarakatning maqsadga muvofiqligi va ongliligi natijaga erishishdagi qatiyatlikni shakillantirish . boshlang'ich mexnat topshiriqlarini baja-rib, bolalar birgalikda ishlashni boshlaydilar. Bolalarda mustaqillikni shakillantirish bugungi kun pedagogikasining eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib kelgan . Bolalar qanchalik kichik bo'lsa , ularning mustaqil xarakat qilishi qobilyati shuncha-lik zaif bo'ladi. Ular o'zlarini nazorat qila olmaydilar , shuning uchun ular boshqa-larga taqlid qilishadi . Tarbiyachi guruhda barcha bolalarga teng darajada mehr va g'amxo'rlik ko'rsatadigan ijobiy psixologik mikroiklimni yaratib ; yig'ilishda quvonchni ifada etib , bolaga munosabatini bildirish uchun mehr va ilq so'zdan foydalanish kerak. Bolalarning mustaqil ijodiy faoliyati uchun sharoit yaratishi zarur . Bolaning qiziqishlariga qarab mustaqil ijodiy , kongtiv faoliyati uchun sharoit yaratishi vaqt ajratishi kerak.

Pedagog – tarbiyachi shaxsini shakllantirish Tarbiyachi maktabgacha yoshidagi bolalarga tabiat, jamiyat hodisalari, kattalarning mehnati haqida boshlang‘ich bilim va tushunchalar beradi, ularga madaniy ahlok, o‘z tengdoshlari va kattalar bilan madaniyatli munosabatda bo‘lish odatlarini singdiradi, yaxshilik, haqiqatg‘oylik, adolat, jasurlik, kamtarinlik, kattalarga hurmat bilan qarash, [tabiatga qiziqish](#), kuzatuvchanlik, o‘simlik va hayvonlarga g‘amxurlik bilan qarash, mehnatsevarlik, kattalarni mehnati natijalarini asrab-avaylash kabi ahloqiy sifatlarni tarbiyalaydi. Xalq san‘ati, musiqa, ashula, adabiyot, tasviriy san‘atni bilish, san‘atga muhabbat tarbiyachini madaniyatli qiladi, bolalar bilan olib boradigan ishida yordam beradi. Pedagog kerakli bilim, malaka va ko‘nikmalarni ma‘lum bir izchillik bilan egallab borsagina bolalarni tarbiyalash va ularga ta‘lim berish ishida yaxshi natijalarga erishadi. Tarbiyachi o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lish uchun maxsus tayyorgarlik ko‘rishi kerak. U quyidagi shartlarga amal qilishi kerak: 1. Pedagog yosh avlodni tarbiyalash uchun yuqori ma‘lumotli, kerakli bilimlarni egallab, kerakli adabiyotlarni tanlay oladigan, ilmiy adabiyotlar bilan ishlay oladigan, ilg‘or tajribali pedagoglarning tajribasini o‘rganib, o‘z ishiga tadbiiq eta oladigan bo‘lishi; 2. Pedagog bolalarni kuzata oladigan, ularning xulqi, xatti-harakati sabablarini to‘g‘ri tahlil qilib, unga ijobiy ta‘sir etuvchi vositalarni topa olishi; 3. Yosh avlodni kerakli bilim, malaka, ko‘nikmalardan xabardor qilish [uchun pedagogning nutqi ravon](#), aniq, mantiqiy, ixcham bo‘lishi lozim. Ta‘lim berishda texnikaviy vositalardan samarali foydalana olishi kerak. Bolalar bilim, malaka, ko‘nikmalarni yaxshi o‘zlashtirib olishlari uchun ularni faollashtirib savollardan foydalanishi; 4. Tarbiyachi o‘ziga yuklangan vazifani bajarish uchun bolalarda o‘sha faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg‘ota olish, ularning diqqatini jalb kilib, faolligini o‘stirish, bolalarning xulqini, xatti-harakatini haqqoniy baholay olishi; 5. Har bir faoliyat uchun kerakli materiallarni oldindan tayyorlab qo‘yishi; 6. Kun tartibini to‘g‘ri tashkil eta bilishi, bolalar jamoasiga undagi har bir a‘zoni e‘tiborga olgan holda rahbarlik qila bilish; 7. Bolalarning ruhiy va jismoniy holatini aniqlay bilishi va buni bolalar bilan amalga oshiriladigan ta‘lim-tarbiyaviy ishlarida e‘tiborga olishi; 8. Tarbiyachi ota-onalar bilan muntazam ravishda suhbatlar, uchrashuvlar o‘tkazib, axborot almashtirib turishi; 9. Pedagog bolalarga nisbatan hayrihoxlik munosabatda bo‘lishi, har bir bola uchun qulay sharoit yaratishi, hafa bo‘lsa ovuntara olishi; 10. Kun tartibida olib borgan ta‘lim-tarbiya ishini tahlil qila bilishi va uni yanada yaxshilash yo‘llarini topa olishi kerak. Eng muhimi – tarbiyachi bolalarga ishonch bilan qarashi, ularning mehnatsevarligi, mustaqilligi, tashabbuskorligini to‘g‘ri taqdirlashi va mustaqil faoliyat qilishlari uchun imkoniyat yaratishi kerak. Buni bolalar yuqori baholaydilar. Pedagog – tarbiyachining nutq madaniyati Nutq madaniyati – [ijtimoiy madaniyatni](#), kishilik jamiyati madaniyatini aks ettiruvchi bir ko‘zgu dir. Nutq madaniyati adabiy tilning har ikki shakli – yozma va og‘zaki shakli uchun zarurdir. Nutq madaniyatiga e‘tibor yolg‘iz o‘qituvchilardan emas, balki har bir fuqarodan ongli

ravishda o‘zlashtirish talab qilinadigan insoniy fazilatlaridan biridir. Uni egallash har bir o‘qituvchining va shaxsning madaniy saviyasi va bilimiga bog‘liq. O‘qituvchi pedagogik mahoratida nutq madaniyati, uning nafaqat ma'naviy va axloqiy jihatdan boyligini, balki bilimini, tafakkurini, ilmiy dunyoqarashini, fikr va mushohada yuritishini belgilovchi me'yordir. O‘qituvchining nutq madaniyati birdaniga shakllanib maromiga yetadigan jarayon emas, u pedagogik mahorat bilan, kasb faoliyati davomida, tajribali ustozlar o‘giti natijasida yillar davomida takomillashib, sayqallanib boraveradi. O‘qituvchining nutqiy qobiliyati madaniy, kasbiy, pedagogik talablar asosida shakllanib boradi. Uni rivojlantirish faqat o‘qituvchining shijoatiga bog‘liq.

Xulosa.

Xulosa qilib atganda maktabgacha ta’lim tashilotlarida bolalar faoliyatini tashkil etishda tarbiyachi – pedagogning o‘rni katta hisoblanadi. Tarbiyachi bolaga tarbiya berar ekan avvalambor o‘zi Vatanparvarlik ruxida tarbiyalangan bo‘lishi kerak . Tarbiyachi har-bir bola bilan aloxida ishlashi shug‘ullanishi yashirin qobiliyatlarini yuzaga chiqarishida bolaga yordam berishi zarur. Har-bir o‘tkazilayotgan mashg‘ulotlarda har-bir bolaning faoligiga aloxida ahamiyat berib kuzatishi zarur .

Foydalanilgan adabiyotlar .

1. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining 2018 – yil 4-sonli hayati yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan .
2. Maktabgacha yoshdagi bolalar ilk rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev tomonidan 2019 -yil 20-martda “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5-ta muxum tashabbus.